



UDK 636.32/.38.082.4.

**“QORAKO'L GULLARINING JOYLASHISH RASMI BO'YICHA TURLI JUFTLASHDAN OLINGAN QORA RANGLI QORAKO'L QO'YLARIDA AYRIM SELEKSION BELGILARNING NAMOYON BO'LISHI.”**

*QChEITI tayanch doktoranti(PhD) - Norboyeva G.S.*

*QChEITI q.x.f.d., katta ilmiy xodim - Gaziyev A.*

**Annotatsiya.** Maqolada qora rangli qorako'l qo'ylarini gullarining joylashish rasmi bo'yicha turli variantlarda juftlashdan olingan avlodlarda gullarning rasmi, jun-tola uzunligi va teri qalinligining namoyon bo'lishi darajalarini o'rganish natijalari yoritilgan.

**Annotation.** In the article, the results of the study of the levels of manifestation of flower pattern, wool-fiber length and skin thickness in the offspring obtained from the mating of different variants of black Karakol sheep according to the location picture of flowers are highlighted.

**Key words.** Karakul sheep, lambs, homogenous and heterogenous mating, forms of offspring, picture of location of flowers, length, wool fiber length, skin thickness.

**Kalit so'zlar.** Qorako'l qo'ylari, qo'zilar, gomogen va geterogen juftlash, naslga berilishi, gullarining joylashish rasmi, uzunligi, jun-tola uzunligi, teri qalinligi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Qorako'l qo'ylari qadimgi qo'y zotlaridan biri bo'lib, hisoblanadi. Bu zot O'zbekistonda yaratilgan bo'lib, cho'l va chala cho'l mintaqalaridagi og'ir sharoitli yaylovlarda yashashga yaxshi moslashgan. Gullarining o'ziga xos shakli, ajoyib naqshi, mo'ynasining ipakdek mayinligi va yaltiroqligi bilan qorako'l terilari butun jahonga mashhur.

Qorako'l qo'ylari bilan seleksiya ishlarini olib borishda eng muhim belgilar qatoriga qorako'l terilari sathida gullarning hosil qiladigan rasmi hisoblanadi.

Qorako'l gullarining joylashish rasmi asosan 3 xil ko'rinishda, ya'ni parallel-konsentrik, parallel-to'g'ri va aralash holatlarda uchraydi. Birinchi ikki ko'rinish maqsadga muvofiq hisoblanib, ular asosan qimmatli yarim doira, qovurg'asimon va yassi gul tiplarida, aralash ko'rinish esa qimmatsiz o'siq gul tiplarida uchraydi.

T.U.Umirzakov (1977; 1992), M.A.Eckara, J.A.Parjanov, B.A.Ajibekov (2017), R.G.Valiyev(1984), A.Gaziyev (2007) tadqiqotlarida qorako'l gullari joylashish rasmining seleksion ahamiyati yoritilgan.

Bajarilgan tadqiqotlarga qaramasdan ushbu ko'rsatkichlarning seleksion ahamiyati va genetik tabiatini to'liqroq ochib berish qorako'l qo'ylari seleksiyasining hozirgi bosqichda ham dolzarb muammosi hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Qorako'l qo'ylarini gullarining joylashish rasmi bo'yicha turli variantlarda juftlashda avlodlarda ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lish



darajalari va ehtimoliy chegaralarini, shuningdek jun tola uzunligi va teri qalinligi kabi sifatlarni ham aniqlash tadqiqotning maqsadi etib belgilandi.

**Tadqiqot manbai va usullari.** Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatining "Muborak" naslchilik MChJda urchitiluvchi qora rangli qorako'l qo'ylarida olib borildi. Parallel-konsentrik va parallel-to'g'ri rasmi qo'chqorlar bilan parallel-konsentrik, parallel-to'g'ri va aralash rasmi ona qo'ylar juftlanib, olingan avlodlarda ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lish darajalari o'rganildi.

Qo'zilarini seleksion baholash "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarini baholash (banitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma" (S.Yu.Yusupov va boshqalar, 2015) asosida amalga oshirildi.

Olingan ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berildi (N.A.Ploxinskiy, 1969).

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqotlarda olib borilgan juftlash ishlari natijasida olingan avlodlarning gullarining joylashish rasmi bo'yicha taqsimlanish darajalari o'rganildi.

1-jadval

Turli juftlashda avlodlarda gul rasmlarining namoyon bo'lishi.

Juftlash		Jami olingan , bosh	Shundan, % (X±Sx)		
♂	♀		PK rasmi	PT rasmi	aralash rasmi
PK	PK	270	68,1 ± 3,44	16,3 ± 5,57 <sup>x)</sup>	15,6 ± 5,6 <sup>x)</sup>
	PT	145	23,4 ± 7,26 <sup>x)</sup>	64,0 ± 5,0	12,6 ± 7,8 <sup>x)</sup>
	Aralash	120	31,7 ± 7,55 <sup>x)</sup>	18,3 ± 8,2 <sup>x)</sup>	50,0 ± 6,5
PT	PK	175	35,4 ± 6,1	37,7 ± 6,0	26,9 ± 6,5
	PT	142	27,5 ± 7,15	50,7 ± 5,9	21,8 ± 7,42
	Aralash	110	21,8 ± 8,43 <sup>x)</sup>	52,7 ± 6,6 <sup>x)</sup>	25,5 ± 8,24

X)-P<0,001; X-P<0,05

Tadqiqotlarda qo'ylarni gul rasmi bo'yicha gomogen va geterogen juftlash asosida avlodlarda maqsadga muvofiq gul rasmlari bilan xarakterlanuvchi avlodlar chiqishini boshqarish mumkinligi aniqlandi. Ushbu holatda eng yuqori natijalarga gomogen juftlashda erishish imkoniyatlarining yuqoriligi qayd etildi. Buni quyidagi natijalarda ko'rish mumkin, ya'ni parallel-konsentrik gul rasmi ota-onalarni juftlashning shu xususiyati avlodlar salmog'ini 68,1 ± 3,44 foizga, parallel-to'g'ri gul rasmi, ota-onalarni juftlashda esa shunday qo'zilar salmog'ini 50,7 ± 5,9 foizga yetkazish mumkinligi aniqlandi. Keyingi o'rganilayotgan ko'rsatkichlardan biri jun-tola uzunligi qorako'l xossalarini va qorako'l xom-ashyosining tavar qimmatini belgilashda muhim o'rin tutadi. Jun tolalarining uzunligi qorako'l teri xom-ashyo turiga, xomilaning embrional rivojlanish muddatiga va boshqa faktorlarga bog'liqdir.

Tadqiqotlarda olib borilgan juftlash ishlari natijasida olingan avlodlarning jun-tola uzunligi bo'yicha taqsimlanishi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar 2-jadvalda umumlashtirilgan.





Tadqiqotlarda qo'ylarni gul rasmi bo'yicha gomogen va geterogen juftlash asosida avlodlarda jun tola uzunligi bo'yicha 9 va 10 mm li avlodlar soni nisbatan ko'p bo'ldi. Ushbu

Juftlash		J ami olingan avlod, bosh	Shundan jun-tola uzunligi bo'yicha % (X±Sx)								
♂	♀		8mm	9 mm	10mm	11 mm	12 mm	13 mm	14	15	16
PK	PK	270	7,8 ± 5	17,8 ±	43,7 ±	20,4±	56 ± 6,0	3 ±	1,11 ±	0,25 ±	---
	PT	145	13,1 ±	24,4 ±	42,76 ±	8,3 ±	6,9 ±	2,07	2,07 ±	---	---
	Aralash	120	3,3 ±	7,5 ±	12,5 ±	19,17 ±	15 ±	16,7±	12,5 ±	7,5 ±	8,3 ±
PT	PK	175	12,7 ±	20,57 ±	29,7 ±	13,7 ±	15,43 ±	5,7 ±	2,86 ±	---	---
	PT	142	21,83 ± 2	27,06 ±	39,44 ±	6,34 ±	3,52 ±	1,4 ±	1,4 ±	---	---
	Aralash	110	2,73 ±	5,43 ±	27,3 ±	11,8 ±	21,8 ±	21 ±	10 ±	---	---

holatda eng yuqori natijalarga gomogen juftlashda erishish imkoniyatlarining yuqoriligi qayd etildi. Buni quyidagi natijalarda ko'rish mumkin, ya'ni parallel-konsentrik gul rasmlari ota-onalarni juftlashning xususiyati avlodlar salmog'ini  $43,7 \pm 4,6$  foizga, parallel-to'g'ri gul rasmlari shu ota-onalarni juftlashda esa shunday qo'zilar salmog'ini  $39,44 \pm 6,5$  foizga yetkazish aniqlandi.

## 2-jadval

Qorako'l terilari mag'zining qalinligi va mustahkamligi muhim seleksion ko'rsatkich bo'lib, terilarining qalinligi uning og'ir yoki yengilligini ta'minlasa, mustahkamligi esa chidamliligini oshiradi. Terining yupqa va mustahkam bo'lishi gullarning sifatini yaxshilaydi, aksincha bo'lsa, yirik gullar shakllanadi, ya'ni o'siq gulli, past sinfli avlodlar salmog'i ko'payadi.

Teri to'qimasining qalinligi epidermis, derma va teri osti klechatkasi qalinliklari yig'indisidan tashkil topadi. Terilarga baho berishda bu ko'rsatkich albatta hisobga olinishi kerak. Shuni ham aytish kerakki, qorako'l qo'ylarini teri to'qimasining qalinligi bo'yicha seleksiyalash ko'plab yupqa mag'izli teri yetishtirishni ta'minlaydi.

Tadqiqotlarda olib borilgan juftlash ishlari natijasida olingan avlodlarning teri qalinligi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar 3-jadvalda umumlashtirilgan.



3-jadval

Turli juftlashda avlodlarda teri qalinligining namoyon bo'lishi.

Juftlash		Jam i olingan avlod, bosh	Shundan, % (X±Sx)		
♂	♀		yupqa	qalinlashgan	qalin
PK	PK	270	76 ± 3,0	14,8 ± 5,6	9,3 ± 5,8
	PT	145	79,3 ± 3,8	6,9 ± 8,0	13,8 ± 7,7
	Aralash	120	65 ± 5,4	16,7 ± 8,34	18,3 ± 8,2
PT	PK	175	76 ± 3,7	13,7 ± 7,02	10,3 ± 7,2
	PT	142	78,9 ± 3,9	14,1 ± 7,8	7 ± 8,1
	Aralash	110	67,3 ± 5,5	22,7 ± 8,6	10 ± 9,05

Tadqiqotlarda qo'ylarni gul rasmi bo'yicha gomogen va geterogen juftlash asosida avlodlarda yupqa terili avlodlar salmog'i yuqori bo'ldi. Buni quyidagi natijalarda ko'rish mumkin, ya'ni parallel-konsentrik gul rasimli, ota-onalarni juftlashda yupqa terili avlodlar salmog'ini  $76 \pm 3,0$  foizga, parallel-to'g'ri gul rasimli, ota-onalarni juftlashda esa shunday qo'zilar salmog'ini  $78,9 \pm 3,9$  foizga geterogen juftlashda parallel-konsentrik gul rasimli ota va parallel-to'g'ri gul rasimli onalarni juftlashda eng yuqori, ya'ni  $79,3 \pm 3,8$  foiz natija olish mumkinligi aniqlandi.

**Xulosa:** Qorako'l qo'ylarini seleksiyalash jarayonida ularning gul tipi bo'yicha juftlash bilan bir qatorda gullarning joylashish rasmiga ham alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Gullarning joylashish rasmiga qarab saralash mazkur belgining nasldan-naslga o'tishi kuchayib borishiga olib kelishidan tashqari, junning uzunligining qisqarishiga ham yordam beradi, qalamgul gullarining uzunligini oshiradi, gullarning aniqliligi va terining tovar yuzasi bo'ylab bir tekis joylashishini yaxshilaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Валиев Р.Г. Теория и практика селекции и разведения черных каракульских овец. Докт.дисс., Масква, 1984, 255 с
2. Газиев А. Селекционни-генетические аспекты эффективного использования потенциала каракульских овец в Узбекистане. "Животноводство, кармолроизводство и ветеринария", №2 Алматы-2007 с.28-30
3. Ескара М.А. Паржанов Ж.А. Ажибеков. А Наследование признаковсмугливости каракульских овец черной окраски скороспелого типа жомартовской популяции. Сб. Науг. Трудов ЮЗНИИЖиР. Т.2. шқмкент, 2017, с.79-81
4. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва, 1969. С.125-130



5. Умурзоков Т.У. Исследование генетических признаков разнообразия каракульского приплода по типу смушка при однородном подборе родителей жакетного типа. Автореф. Канд.дисс., Чимкент, 1977, 23 с

6. Умурзоков Т.У. Чеменчивость признаков и селекция каракульских овец. Алмата, 1992. 232 с.

7. Yusupov S.Yu. va boshqalar, "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (banitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma". Toshkent, 2015. 31 bet.